

## **QO'YLARDA BRADZOT KASALLIGI DIAGNOSTIKASI VA UNGA QARSHI KURASHISH USULLARI**

**Ergashev Nodir Baxodirovich**

Tayanch doktorant, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali

**Mengliyev G'ayrat Akromovich**

Ilmiy rahbar,v.f.n., Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali

### **Аннотация:**

В данной статье представлена информация о диагностике и профилактике болезни брадзот у овец. Это, в свою очередь, позволит специалистам фермы диагностировать, лечить и предотвращать заболевания.

**Ключевые слова:** брадикардия, диагностика, Cl.Septicum, биомицин, синтомицин, иммунитет, вакцина, профилактика.

**Mavzuning dolzarbliji.** Respublikamizda chorvachilikni jadal rivojlantirish va rentabelli sohalardan biriga aylantirish, aholi turmush darajasini yaxshilash, ichki bozorni go'sht, sut kabi hayotiy muhim oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror to'ldirishning muhim omili sifatida rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. . Veterinariya fani va amaliyoti oldiga - shaxsiy yordamchi dehqon va fermer xo'jaliklariga qarashli chorva mollarining kasalliklariga qarshi kurashish va davolashning hamda hayvonlar mahsulorligi va reproduktiv xususiyatlarini yaxshilashning samarali va kamchiqim usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish orqali mahsulotlar tannarxini kamaytirishga erishishdek dolzarb vazifalar qo'yilgan. Adabiyot ma'lumotlarining tahlili va shaxsiy kuzatishlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Respublikamizning chorvachilik fermer xo'jaliklarida xususan qo'yilda bradzot kasalligi tabiiy sharoitda qo'ylar zoti va jinsidan qat'iy nazar kasallanaveradi hamda yashin tezligida va o'tkir kechadi. Shu boyis kasallikga barvaqt diagnostika qilish, samarali davolash hamda oldini olish chora-tadbirlari o'z vaqtida olib borilishi lozim.

**Mavzuning o'rganiganlik darjasи.** Biz tadqiqotlarimiz jarayonining birnchi bosqichida qo'ylarning bradzot kasalligi haqida ma'lumotlarni yig'dik va ushbu kasalliklarning kelib chiqish sabablarini o'rgandik hamda olingan ma'lumotlarni va kasalliklarning profilaktikasi bo'yicha qisqacha ma'lumotlarni keng ommaga havola etishni maqsad qildik. Jumladan:

**Bradzot** yuqumli kasallik bo'lib, shirdon va o'n ikki barmoq ichakning gemorragik yallig'lanishi, parenximatoz a'zolarda to'qimalarning o'zgarishi va oshqozon-ichakda gaz to'planishi bilan shiddatli kechadi.[2;4]

Qo'zg'atuvchisi. Aksariyat Cl. septicum va Cl. Oedemmafienis ajratiladi. Ko'p holarda Cl. Didas da ham topiladi. Lekin bu mikroorganizm ko'pincha oldingi ikkala mikrobning ta'sir kuchini oshiradi. Cl. septicum qatiy anaerob, 37°С da o'sadi. [1;2]

Chidamliligi. Sporadik holatda mikrob o'ta chidamli. Tuproqda, yerda yillab yashay oladi. Qaynatilganda 50-60 minutda o'ladi.[3;4]

Epizootologiyasi. Tabiiy sharoitda qo'ylar zoti va jinsidan qat'iy nazar kasallanaveradi. Ko'p hollarda 2 yoshdan kattalari kasallanadi. Bradzot yilning har qanday faslda uchraydi. Bizning kuzatishimiz bo'yicha bahorda yaylovda butalar pishgan yoz oylarida hamda kuzda uchraydi. Skandinaviya mamlakatlarida sentyabrda boshlanib, martgacha davom etganligi to'g'risida ma'lumot bor. K. Lamixovning kuzatishicha asosan yoz oylarida ko'p uchragan. K. Andreyev esa qo'ylar sentyabrdan fevralgacha bradzot bilan kasallanganligini ma'lum qiladi. Germaniyada sentyabr-yanvar oylarida uchragan. Ayrim kuzatuvchilar bradzot ko'proq daryolarning quyilish joyi va ko'l bo'yalarida uchrashini keltiradilar. Bunga qo'ylarning zararlangan yerdan o'tni loy bilan qo'shib olib yeyishi sabab bo'ladi deb ko'rsatadilar. Ba'zi ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, bradzotning yaylovda va bir joyda boqiladigan holatda uchrashiga alohida e'tibor beriladi. Bir joyda boqilganda qo'zilar, yaylovda boqilganda esa ko'pincha katta yoshdagi qo'ylar kasallanadi. Kasalliknnig kelib chiqishida yayloving kasallik qo'zg'atuvchisi bilan zararlanganligi katta ahamiyat kasb etadi. Ko'pincha bradzot va enterotoksemita bahor paytlarida birga kelishi mumkin. Bradzot bilan semiz qo'ylar ko'p kasallanadi. Kasallik asosan alimentar yo'l bilan yuqib, qo'zg'atuvchi spora bilan zararlangan ozuqa yoki suv orqali qo'y organizmiga tushadi. Kasal qo'y kasallik qo'zg'atuvchisining manbai bo'lib qoladi.[4;5;7]

Klinik belgilari. Bradzot yashin tezligida va o'tkir kechadi. Yashin tezligida kechganda kechqurun sog' yurgan qo'y kechasi birdan o'lib qoladi. Ba'zan bir-ikki bosh qo'y suruvdan orqada qolib, top etib yiqiladi. 10–15 daqiqa qaltiroq tutib, ko'zlari qizaradi, sal qorni shishib o'ladi. O'lim oldidan og'zidan ko'pixsimon suyuqliq oqadi. Tana harorati bir oz ko'tarilishi mumkin. O'tkir kechganda ham tana harorati bir oz ko'tariladi, holsizlanadi, hyech narsa yemay qo'yadi. Nafas olish va yurak-tomirlar faoliyati tezlashadi. Burun va og'iz bo'shlig'idan ko'pixsimon shilimshiq suyuqlik oqadi. Ba'zan qon aralash ich ketadi, siydk tez-tez ajraladi, qorin shishadi, kasal qo'y tishlarini g'ichirlatadi. Ayrim hollarda bezvtalanib, oyog'ini tap-tap qilib tashlaydi, bir joyda aylanaveradi, yotgan joyida oyoqlarini suzib yurgandek harakatga keltiradi. Vaqt- vaqt bilan qaltiraydi. Odatda bezvtalanish umumiyl holsizlanish bilan almashinadi. Kasal qo'y umumiyl holsizlanish va qattiq hansirash natijasida 10–14 soat ichida halok bo'ladi. Kasallik cho'zilsa, 3-5 kun davom etishi mumkin.[4;6]

Diagnoz. Bradzotga diagnoz qo'yishda uning epizootologiyasi (qo'ylar kasallanadi, jinsi va yoshining ahamiyati yo'q, epizootik kechib, har qanday faslda uchrashi mumkin), klinik belgilari (shiddatli, o'tkir kechadi, ayrim hollarda bezvtalanish, qon aralash ich ketish, qaltirash kuzatiladi), patologoanatomik o'zgarishlar (o'laksa tez shishadi, teri yorilib ketishi

mumkin, chirigan sassiq hid chiqadi), laboratoriyyada tekshirish usullarining natijalari hisobga olinadi. Laboratoriyyaga parenximatoz a'zolar (jigarning nekrozga uchragan joyi), shirdonning jarohatlangan joyi, shishgan to'qimalar, o'n ikki barmoq ichak va h. k. jo'natiladi.[4;5;6]

Bakteriologik tekshirish. Jo'natilgan namunalardan Kitt-Tarossi muhiti, MPB va MPA larga ekiladi. Ekilgan probirkalar 37-38°С haroratlari termostatga joylashtiriladi. Anaerob muhit uchun mikroaerostat yoki eksikatordan foydalaniladi. Cl. septicum tez o'sib gaz ajratadi. Cl. Oedemmatiens salgina loyqa hosil qilib, kamdan-kam hollarda gaz ajratib o'sadi. Qattiq muhitda birinchisi gemoliz zonasini hosil qiladi, keyinchalik o'rtasi qoramtilroq o'sib, yuzasi g'adir-budur, chetlari esa kesilgandek ko'rindi.[2;6]

Differensial diagnoz. Bradzotni kuydirgi, yuqumli enterotoksemita, pasterellyoz, emkar, piraplaazmoz va akonit bilan zaharlanishdan farq qila bilish kerak.[2;7]

- Kuydirgida taloq kattalashadi va kesganda qora moysimon massa chiqadi. Hamma tur hayvonlar kasallanib, faqat yoz oylarida uchraydi. Qulogdan olingan qon surtmasidan kuydirgining tayoqchasi topiladi.

- Yuqumli enterotoksemita buyrak yumshab ketadi. Bradzotda shirdon va o'n ikki barmoq ichak qattiq zararlanadi. Masala asosan bakteriologik usulning xulosasi bilan yechiladi.

- Pasterellyozda ichki va nafas olish a'zolari zararlanadi. Albatta bakteriologik tekshirish o'tkazish zarur.

- Akonit bilan zaharlanishda yaylovdagi zaharli o'tlar tekshiriladi.

- Piroplazmorda esa qon surtmasidan parazit topiladi.

Immunitet. Vaksinani birinchi bo'lib akademik A. A. Volkova ishlab chiqqan va qo'llashga joriy etgan. F. Kagan, A. Kolesovlar konsentrangan polivalent alyuminiy gidroksidli vaksinani yaratdi. Bu bradzot, enterotoksemita, og'ir shish va qo'zilarning dizenteriya kasalliklariga qarshi qo'llaniladi. Kasallikning oldini olish uchun qo'zilar 3 oyliqdan boshlab emlanadi. Oriq, kasal qo'ylar va bichishdan 2 hafta oddin erkak qo'zilar emlanmaydi. Vaksina muskul orasiga yuboriladi, majburiy emlashda oradagi muddat 12-14 kun, profilaktik emlashda esa 20-30 kun bo'ladi. Immunitet 12-14 kundan keyin paydo bo'lib, 6 oygacha davom etadi. Polianatoksin preparat bradzotga qarshi keng ko'lamda qo'llaniladi. Chunki bu kasalliklarda antitoksin immunitetning ahamiyati katta.[4;5]

Oldini olish. Yaylovlar va suv manbalariniig sanitariya ahvolini veterinariya-sanitariya talabi darajasiga ko'tarish zarur. Qaysi joyda bradzot chiqqan bo'lsa, qattiq nazorat ostiga olinadi. Reja asosida qo'ylarni, epizootik holatni hisobga olgan holda emlab turiladi.

Kasallik chiqqan joylarda cheklash e'lon qilinadi. Xo'jalikka qo'y olib kelish va chiqarib sotish qat'iy man etiladi. Qirqim to'xtatilib, qo'y haydashga ruxsat berilmaydi. Nosog'lom yaylovdan xashak o'rib olish to'xtatiladi. Qaysi otardan bradzot chiqsa, uning joyi yoki yaylovi darhol o'zgartiriladi. Kasal qo'ylar ajratilib, sog'lari emlanadi. Sog'lom qo'ylar yaylovdan qaytarilib, qamab boqishga o'tkaziladi. Rasionga darhol dag'al xashak va mineral moddalar qo'shiladi. Kasal qo'ylar saqlangan qo'yxonalar xlорli ohakning 3%li faol xlорi bor

eritmasi, 5% li formaldegid yoki ishqorlar, 5% li formalin, 10% li xlор (1)-yodid moddalari bilan dezinfeksiya qilinadi. Kasal qo‘yni go‘sht uchun so‘yish, o‘laksalardan terisini ajratib olish, junini qirqish, sutini sog‘ib olish va iste’mol uchun ishlatalish qat’iy man etiladi. O‘laksalar faqat maxsus moslashtirilgan transport vositalarida yig‘ishtirib olinadi, o‘rnii dezinfeksiya qilinadi. Zararlangan qo‘ylarning qiyi, chiqqan chiqindilari, o‘laksalar terisi ajratilmasdan kuydirib tashlanadi. O‘laksani yorib ko‘rish faqat diagnoz qo‘yish uchun mumkin va maxsus ajratilgan joylarda o’tkaziladi. Cheklash oxirgi kasal qo‘y o‘lgandan ikki hafta keyin bekor qilinadi.[4;7]

**Xulosa:** Qo‘ylarda bradzot kasalligi diagnostikasi va unga qarshi kurashish usullari borasida adabyotlarni tahlil qilish va shaxsiy tadqiqotlarimiz bilan shunday xulosaga keldikki, bradzot yilning har qanday faslida uchrashini hamda kasalliknnig kelib chiqishida yayloving kasallik qo‘zg‘atuvchisi bilan zararlanganligi katta ahamiyat kasb etayotganligi, kasallikga tez va aniq diagnoz qilish, kasallikni oldini olish borasiada ko‘plab usullardan amalyotada foydalanib keleniyotgani va davolash usullarini yanada takomillashtirib borilishi chorvachilik xo‘jaliklarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. В.Н. Кисленко, Н.М. Количев, О.С. Суворина. Частная ветеринарная микробиология и иммунология. Часть.3 Частная микробиология.// М.Колос, 2007. S.75-92
2. Z.J.Shapulatova. Mikrobiologiya. O‘quv qo‘llanma. //Toshkent,2013.169-171b
3. B.Sayitqulov, H.Salimov, A.Oripov, Q.Norboyev .Veterinariya mutaxasislari uchun qisqacha ma‘lumotnoma. O‘quv qo‘llanma. //Toshkent,2015. 120-130-b
4. М.Р. Пармонов, А.А. Гамбаров. Эпизоотология. О‘quv qo‘llanma.// Toshkent,2006
5. <http://www.cnshb.ru/AKDiL>. Поляковский М. Д., Брадзот, в кн.: Болезни овец и коз, 3 изд., М., 1973; Ургуев К. Р., Клостридиозы овец, М., 1977.
6. <https://www.vidal.ru/veterinar/novosti/10329>
7. <https://scienceforum.ru/2015/> II Международная студенческая научная конференция Студенческий научный форум – 2015 Салахутдинова Д.И., Андреева А.В.